

## BUGUNGI KUNDA PEDAGOGIK TEXNALOGIYALARING AHAMIYATI VA ULARNI TARIX DARSLARIDA QO'LLANILISHI YUZASIDAN METODIK TAVSIYA

*Eshmamatova Shahnoza Abdurahmanovna*

*Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani 5-son ingliz tili faniga chuqur  
o'rgatiladigan ixtisoslashtirilgan maktabining tarix fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda ishlab chiqarish texnologiyalari tezlik bilan rivojlanayotgan bir davrda ta'lif soxasi ham boshqa ishlab chiqarish muassasalari kabi ilmiy, asoslangan yangi pedagogik texnologiyalar, informatsion ma'lumotlarni qo'llagan holda malakali mutaxassislar faoliyat yuritadigan raqobatbardosh, ilmli, bilimli kishilarni Vatan ravnaqi uchun tayyorlab beradigan soxa sifatida rivojlanib bormoqda. Ushbu maqolada pedagogik texnologiyalarning tarix darslarida qo'llanilishi haqida aytib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagoglar, ta'lim-tarbiya, intensiv metodlar, ijtimoiy-siyosiy.

Yurtimiz bugun jadal sur'atlar bilan rivojlanib borar ekan, uni taraqqiyot bosqichiga ko'tarish o'sib kelayotgan yosh avlodning qo'lida. Shunday ekan, o'z qarashlariga ega, mustaqil fikrlay oladigan, fikrlarini ijodiy, erkin bayon qila oladigan yoshlarni tarbiyalash biz o'qituvchilarning vazifasi sanaladi. Bu esa bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. O'quvchini mustaqil fikrlashga va bu fikrlarini bayon eta olishga o'rgatmas ekanmiz, ta'lif jarayonida ijobiy natijaga erishish murakkab masalaligicha qolaveradi. Xo'sh, qanday qilib o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish, ijodiy ishlashga o'rgatish mumkin? Hammamizga ma'lumki, bu ishni amalga oshirish uchun, avvalo, o'qituvchining o'zi ijodiy ishlaydigan, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga va ijodiy ishlashga o'rgatishning uslub va usullarini egallagan bo'lishi zarur. Bugungi tez

o'zgaruvchan iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy hayot o'quvchi yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda yangi pedagogik interfaol metodlardan keng foydalanishni taqozo qiladi, An'anaviy mashgulotlar olib borish asta sekin o'z o'rnni intensiv va interfaol metodlarga, noan'anaviy dars o'tish shakllariga bo'shatib bermoqda. Ta'lim - tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, avvalo, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirishni talab etadi. Chunki uni amalga oshirmay turib qo'llangan har qanday texnologiya kutilgan samarani bermaydi. Ta'lim-tarbiya jarayonining doimiy ravishda optimallashib borishi dars berish jarayonida qo'llanilayotgan yangi va takomillashib borayotgan pedagogik texnologiyalarning turli yo'nalish va maqsadlarda qo'llanilayotganligiga bog'liq. Hozirgi zamon har bir fan o'qituvchisi zimmasiga inson, uning jamiyatdagi o'rni va roliga har tamonlama qarash vazifasini yuklaydi. Buning uchun o'qituvchi ta'lim-tarbiyaning yangi shakllari, vositalari va usullarini egallashi va shu bilan birga o'zi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratishga, shaxsni tarbiyalashning yangi a'nanaviy, samarali usullarini tanlashga harakat qilishi hamda ijodkor bo'lmos'hil lozim. Maktablarda o'qitilayotgan ijtimoiy, shu jumladan tarix fani o'zida olivjanob fazilatlarni mujassamlashtirilgan insonni tarbiyalashda benihoya ahamiyat kasb etadi. Maktabda o'quvchi kishilik jamiyati bosib o'tgan yo'lni, ularning chet el bosqinchilariga qarshi, o'z ozodligi va baxt-saodati, porloq kelajagi uchun olib borgan kurashlari haqidagi asosiy ma'lumotlarni tarix darslaridan bilib oladi. Shu bilan birga tarix darslari o'quvchining hozirgi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni to'g'ri anglashga yordamlashadi.

Bizga ma'lumki tarix-juda qadimiy fanlardan biri hisoblanadi. Tarix fanini keljakni ko'rsatuvchi „Ko'zgu” desak bo'ladi va bu ko'zguga qarab har qanday inson,jamiyat, xalq o'z kelajagini belgilab olishi mumkin. Hozirgi kunda O'zbekiston rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin egallashi onson kechgani yo'q. Shuning uchun tarixni o'qitish jarayonida o'quvchilar bugungi kunning qadriga

yetishini, o'tmishda yo'l qo'yilgan xatolarni takrorlamaslikni, o'tmishdagi xatolardan xulosa chiqarib olishini o'rgatish lozimdir. Qolaversa mакtabda tarix fanini o'qitish orqali o'quvchilarda o'zlari mustaqil va ijodiy fiklashini rivojlantirishga, miliy ong va tafakkurni o'stirishga, eng asosiysi ma'naviy barkamol shaxsni, haqiqiy vatanparvar insonni tarbiyalab voyaga yetkazishga ahamiyat berish lozim. Ta'lim-tarbiya jarayonida mazkur vazifalarni amalgaloshirish uchun bugungi kunning pedagog hodimlari har bir darsda qiziqarli, samarali bo'lgan yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish kerak. Bizga ma'lumki, tarix fanining asosini ma'lumotlar tashkil etadi. Ularni to'liq eslab qolishi o'quvchilar uchun bir o'z qiyinchilik tug'dirishi mumkin (ayrim past o'zlashtiruvchi o'quvchilar). Bu kabi ma'lumotlarni o'quvchilar xotirasida bir umrga esda qolishi, turli xil sahnali ko'rinishlar, qiziqarli o'yinli usullar, krossvordlar, guruhlar bilan ishslash, baxs-munozaralar olib borishiga bog'liq.

Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi - bu o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga xamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalarga bog'liq deb hisoblaymiz, ya'ni o'qitish ja rayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va uo'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchining o'quvchilar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa chiqara olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baxo bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya - bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchi-o'quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan. Oldindan loyixalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir. Shunday ekan har bir pedagog oz darslarini otishdan oldin o'z oldiga

maqsad qo`yib olmog`i lozim. Zero bu kelajak avlod vatanimiz rivojiga hissa qo shadigan barkamol bo lib yetishmog`i lozim. Har bir fan o`qituvchisi oldidagi burch bu barkamol avlodni bilimliy qilb tarbiyalash darslarni mazmunli tashkil etish. Tarix darslarida ham bunday pedagokik texnalogiyalarning o`rni beqiyos. 45 daqiqada mavzuni har bir o`quvchidan so`rash imkonи yo`q, bunda biz turli metodlardan foydalanishimiz mumkin o`quvchini mavzuni qay darajada tushunganliklarini biz bilib olishimiz mumkin. Buning uchun biz mavzuni, oquvchini yoshini inobatga olib darsimizda bu pedagogik texnalogiyani yoki metodlarni tanlashimiz mumkin. Tarix darslarida o`quvchidan ko`proq tarixiy shaxslar nomlari, sanalar, va tarixiy atamalarni yodda saqlash talab etiladi har bir mavzuda bularga alohida e`tibor berishimiz kerak. Bizga ma'lumki o`quvchilar mavzuni o`qituvchi tushuntirib berishi chog`ida va o`zi darslikdan o`qib o`zlashtirishi mumkin. Lekin bu degani sinfda hamma o`quvchilar o`zlashtira oladi degani emas. Chunki hamma o`quvchilarning xotirasi, fikrlash doirasi birdayin bo`lmaydi. Shuning uchun ularga turli xil o`yinlar, sahnali ko`rinishlar, baxsmunozaralar orqali darslar tashkil qilinsa, sinfdagi uncha yaxshi o`zlashtira olmaydigan o`quvchilar ham mavzu haqida tushuncha hosil qilibgina qolmasdan, mustahkamlab oladi. Dars jarayonida o`tilgan mavzuni mustahkamlash chog`ida, avvalombor, o`quvchilarni darsga tayyorlab olishi kerak. Yaxshi dars o`tilishi, o`quvchilarning yaxshi o`zlashtira olishi eng birinchi navbatda o`qituvchi o`quvchilarni o`ziga jalb qilishi, o`tilgan mavzuni dab-durustdan boshlab, ularga o`tilgan mavzu yuzasidan topshiriqlar berishdan emas, aksincha o`quvchilarni o`tilgan mavzu haqida qisqacha tasavvur hosil qilib olishiga bog`liq.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.M.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rinni olgan. Sh.M.Mirziyoyev. — Toshkent: „O'zbekiston”, 2017. — 488 b.
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi: Nasaf. 2000. - 80 b.
3. М. Иброимов, Ш., Болтаев, М., & Сатторова Мактаб укувчилари онгида рекреация тушунчасини шакллантириш. (2020) Academic research in educational sciences, (3), (146-151)
4. Kakharova Nilufar Nuridinovna. (2022). FEATURES OF FORMATIVE SUFFIXES OF THE MODERN RUSSIAN LANGUAGE. Open Access Repository, 8(12), 320–322.